"FILOLOGIK KOMPARATIVISTIKA VA TARJIMASHUNOSLIK MASALALARI"

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

2025-yil, 12-13-noyabr

"PROBLEMS OF COMPARATIVE PHILOLOGY AND TRANSLATION STUDIES"

international scientific and practical conference

November 12-13, 2025



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI KAFEDRASI

“FILOLOGIK KOMPARATIVISTIKA VA TARJIMASHUNOSLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami

2025-yil, 12-13-noyabr

THE MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

ALISHER NAVO’I TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE

THE DEPARTMENT OF “TRANSLATION THEORY AND PRACTICE”

Proceedings of the International Scientific and Practical Conference titled

“PROBLEMS OF COMPARATIVE PHILOLOGY AND TRANSLATION STUDIES”

November 12-13, 2025

Tashkent – 2025

UO'K 845.711.05
KBK 133.585.3 "Filologik komparativistika va tarjimashunoslik masalalari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to'plami. – Toshkent, 2025. – 918 b.

ISBN 978-9910-8871-6-1

Mas'ul muharrir:
Shuhrat SIROJIDDINOV
akademik
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti rektori

Tahrir hay'ati:

Nozliya Normurodova (O'zbekiston), Zuhriddin Isomiddinov (O'zbekiston), Elizabetta Ragagnin (Italiya), Gabriela Shtoekli (Shveytsariya), Qosimboy Mamurov (O'zbekiston), Sayed Mohamed Ahmad Korayem (Misr), Uzoq Jo'raqulov (O'zbekiston), Gulnoz Xalliyeva (O'zbekiston), Yurgen Yakob Beker (Germaniya), Kemal Yavuz Ataman (Turkiya), Xurram Raximov (O'zbekiston), Natalya Filimonova (Rossiya), Nedim Bakirci (Turkiya), Farhad Rahimi (Eron), Xayrulla Hamidov (O'zbekiston), Elmira Adilbekova (Qozog'iston), Sag'inbek O'rinboyev (Qirg'iziston), Zulxumor Xolmanova (O'zbekiston), Mahmadiyor Asadov (O'zbekiston), Ziyodaxon Teshaboyeva (O'zbekiston), Dilnavoz Yusupova (O'zbekiston), Islomjon Yakubov (O'zbekiston), Nargiza Rashidova (O'zbekiston), Sabohat Qahharova (O'zbekiston), Hafiza Qo'chqorova (O'zbekiston,) Nigora Sulaymonova (O'zbekiston), Dilafruz Muhammadiyeva (O'zbekiston), Dostonbek Ahmadov (O'zbekiston), Dilnoza Shonazarova (O'zbekiston).

Mazkur xalqaro konferensiya materiali filologik komparativistika va tarjimashunoslikning dolzarb nazariy hamda amaliy masalalarini zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida yoritishga bag'ishlanadi. To'plamda turli milliy adabiyotlar, tillar va madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir, adabiyotlararo aloqalar, qiyosiy-tipologik va qiyosiy-genetik tadqiqotlar, badiiy va maxsus matnlarni tarjima qilish muammolari, tarjima strategiyalari va ekvivalentlik masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, konferensiya materiallarida tarjima nazariyasining zamonaviy konsepsiyalari, tarjimon kompetensiyasini shakllantirish, tarjimani o'qitish metodikasi, madaniyatlararo kommunikatsiya hamda globallashuv sharoitida tarjimaning ijtimoiy-madaniy ahamiyati kabi masalalar keng yoritiladi. Ilmiy maqolalar filologik komparativistika va tarjimashunoslik sohalarida faoliyat yuritayotgan olimlar, tadqiqotchilar, doktorantlar, magistrantlar hamda talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, fanlararo integratsiyani kuchaytirishga hamda nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

To'plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Ilmiy-texnik kengashining 2025-yil 17-dekabrdagi 6-sonli yig'ilish qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

UO'K 845.711.05
KBK 133.585.3 Proceedings of the International Scientific-Practical Conference on the topic "Problems of comparative philology and translation studies". – Tashkent, 2025. – 918 p.

ISBN 978-9910-8871-6-1

Editor-in-Chief:
Shuhrat SIROJIDDINOV
Academician
Rector of Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

Editorial Board:

Nozliya Normurodova (Uzbekiston), Zuhriddin Isomiddinov (Uzbekiston), Elizabetta Ragagnin (Italy), Gabriela Stöckli (Swetzerland), Qosimboy Mamurov (Uzbekiston), Sayed Mohamed Ahmad Korayem (Egypt), Uzok Djoraqulov (Uzbekiston), Gulnoz Khallieva (Uzbekiston), Jürgen Yakob Beker (Germany), Kemal Yavuz Ataman (Turkiye), Khurram Rakhimov (Uzbekiston), Natalya Filimonova (Russia), Nedim Bakirci (Turkiye), Farhad Rahimi (Iran), Khayrulla Hamidov (Uzbekiston), Elmira Adilbekova (Kazakhstan), Sag'inbek O'rinboyev (Kyrgyzstan), Zulxumor Xolmanova (Uzbekiston), Mahmadiyor Asadov (Uzbekiston), Ziyodakhon Teshaboyeva (Uzbekiston), Dilnavoz Yusupova (Uzbekiston), Islomjon Yakubov (Uzbekiston), Nargiza Rashidova (Uzbekiston), Sabohat Qahharova (Uzbekiston), Hafiza Qo'chqorova (Uzbekiston,) Nigora Sulaymonova (Uzbekiston), Dilafruz Muhammadiyeva (Uzbekiston), Dostonbek Akhmadov (Uzbekiston), Dilnoza Shonazarova (Uzbekiston).

This international conference articles are dedicated to illuminating the current theoretical and practical issues in philological comparativistics and translation studies based on the modern scientific approaches. The collection analyzes of mutual influences between different national literatures, languages and cultures; interliterary connections; comparative-typological and comparative-genetic studies; the issues of translating literary and specialized texts; translation strategies and problems of equivalence. Furthermore, the conference materials extensively cover the topics such as: contemporary concepts in translation theory, the formation of a translator competence, methodologies for teaching translation, intercultural communication and socio-cultural significance of translation in the context of globalization. The given scientific articles are intended to scientists, researchers, doctoral students, master's students and undergraduate students who actively working in the fields of philological comparativistics and translation studies and they serve to strengthen interdisciplinary integration as well as to ensure the harmony between theory and practice.

The views expressed in the articles do not necessarily reflect those of the editorial board.

The publication was recommended by the Scientific and Technical Council of Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature on December 17, 2025.

BADIIY OBRAZNING ESTETIK TABIATI VA BOLALAR ADABIYOTIDAGI TALQINI MASALALARI

Shohida Mo'minova,
ToshDO'TAU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada badiiy adabiyotning inson kamolotidagi o'rni, xususan, madaniy kodlar va til orqali dunyoni anglash masalalari tahlil qilinadi. Muallif badiiy obraz tushunchasining antik davrdan hozirgi kunga qadar bosib o'tgan tadrijiy yo'li, Platon, Aristotel, Gegel kabi mutafakkirlarning estetik qarashlari hamda zamonaviy adabiyotshunoslikdagi talqinlariga to'xtalib o'tadi. Maqolada bolalar adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari, bolalar she'riyatida lirik obrazning namoyon bo'lish shakllari va mustaqillik davri o'zbek bolalar adabiyotining yutuqlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, badiiy asarning yosh kitobxon psixologiyasi va ma'naviy tarbiyasiga ta'siri mezonlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: *Madaniy kod, til, badiiy obraz, estetika, bolalar adabiyoti, lirik kechinma, milliy qadriyat, badiiy tafakkur, psixologizm, badiiy haqiqat.*

Abstract. This article analyzes the role of fiction in human development, specifically the issues of perceiving the world through cultural codes and language. The author examines the evolutionary path of the concept of "artistic image" from ancient times to the present, focusing on the aesthetic views of thinkers such as Plato, Aristotle, and Hegel, as well as interpretations in modern literary criticism. The article scientifically substantiates the unique characteristics of children's literature, the forms of lyrical images in children's poetry, and the achievements of Uzbek children's literature during the independence period. Additionally, it highlights the criteria for the impact of literary works on the psychology and spiritual education of young readers.

Keywords: *Cultural code, language, artistic image, aesthetics, children's literature, lyrical experience, national values, artistic thinking, psychologism, artistic truth.*

Inson dunyoni har doim ham bevosita qabul qilmaydi, balki o'z tajribasi, bolalikdan boshlab ongida shakllanadigan madaniy kodlar orqali anglaydi. Bu kodlar hayotni tushunish, uni baholash va munosabat bildirishda yo'lko'rsatkich bo'lib xizmat qiladi. Ularning eng muhim va eng ta'sirchan unsurlaridan biri bu tildir. Til orqali inson nafaqat axborot oladi, balki u jamiyatning tarixiy xotirasi, qadriyatlari va me'yorlari bilan tanishadi, ularga qo'shiladi. "Qadriyatlar ko'pincha badiiy obrazlar, timsollar va hikoyalar orqali yetkaziladi. Aynan mana shu shakl bevosita nasihatga tayanmagan, balki his-tuyg'u va tasavvur orqali ta'sir qiladigan ifoda ongning chuqur qatlamlariga yo'l topadi"[1]. Ayniqsa, bolaga qaratilgan so'zda alohida kuch bor: u hali mustahkamlanmagan qarashlarni shakllantiradi, yangi ma'naviy maydonni ochadi. Shu bois adabiyot – bolalar ongiga dunyo haqidagi ilk tasavvurlarni joylaydigan, ularni madaniyatga muloyimlik bilan olib kiradigan muhim vositadir. She'r tilning intensiv shaklidir. Bu bir vaqtning o'zida shaxsiy va universal bo'lishi mumkin. U tafakkurni kengaytiradi, o'zimizni yaxshiroq tushunishimizga yordam beradi, bolaga o'ziga xos zavq bag'ishlaydi va bolaga olam haqida tushuncha beradi. Buning muhim qadriyati, nazarimda, bolalar tilning, she'riy tasavvurning cheksiz imkoniyatlarini anglab yetadi; she'riyat har qanday shakl va shaklda bo'lishi mumkinligi; Uning xabari aldamchi darajada beparvolikdan tortib, o'ta jiddiygacha bo'lishi mumkin.

Badiiy adabiyot insonning ruhiy-ma'naviy faoliyati mahsuli bo'lib, unda ijodkor shaxsiyatida ijtimoiy hayot ta'sirida yuzaga kelgan ichki kechinmalar va ruhiy jarayonlar badiiy ifodasini topadi. Uni ruhiy faoliyat turlaridan biri sifatida ko'rishga asos bo'ladigan jihat shundaki, ijodkor borliqni ongida estetik tarzda qayta talqin qiladi va uni badiiy obrazlar orqali ifodalaydi[2]. Shu tariqa, badiiy adabiyot orqali jamiyatda to'plangan bilim, tajriba, ko'nikma va qadriyatlar avloddan avlodga uzatiladi. Chunki har qanday ijodkor borliqni bevosita emas, balki o'z qalbining ichki kechinmalari, estetik idroki va individual dunyoqarashi orqali qayta talqin qiladi. Bu jihatdan, adib ijtimoiy muhit mahsuli sifatida muayyan ijtimoiy guruh vakiliga xos qarashlar, orzu-intilishlar bilan shakllanadi. Biroq, u ayni paytda o'zining individualligi, o'zgacha ruhiy olami bilan ham

[1] Буало Н. Шеърий санъат. Китобда: Ғарб адабий-танқидий тафаккури тарихи очерклари / Ўқув қўлланма-хрестоматия. – Тошкент: Фан, 2008. – С. 258.
[2] Расулов А. Бетакрор ўзлик. Тошкент: МУМТОЗ СЎЗ, 2009. – Б.48.

ajralib turadi. Shu sababli, badiiy asarda ifodalangan g'oya va obrazlar zamirida aynan shaxsiy tajriba bilan yo'g'rilgan ijtimoiylik, ya'ni shaxsiy va ijtimoiy omillar uyg'unligida yuzaga kelgan badiiy haqiqat namoyon bo'ladi[1]. Bolalar yozuvchilari o'z asarlarida bolaning qalbida o'sha «kichik» muammolarni hal qilishga intiladilar, ular bolaning ichki ziddiyatini hal qiladigan xatti-harakatlar modellarini taklif qiladilar va aynan shu bosqichda bolaning kitoblardagi qahramonlar bilan tanishish qobiliyati alohida ahamiyatga ega bo'ladi. Shu bilan birga bolalar adabiyoti ayni yoshda ularda empatiya, qat'iyatlilik, o'ziga ishonch va g'alaba umidi kabi ma'lum xarakterli xususiyatlarni shakllantirishga yordam beradi. Misol uchun, bolaning muhim xususiyati har doim eng yaxshi bo'lish, birinchi bo'lish istagi kitob o'qish paytida paydo bo'ladi.

Har qanday badiiy asarda voqea-hodisalar tasodifiy ravishda emas, balki muayyan estetik markaz atrofida uyushgan holda namoyon bo'ladi. Ushbu markazni harakatga keltiruvchi, syujetni oldinga siljituvchi asosiy unsur obrazdir. Muallifning g'oyaviy niyati, estetik qarashi va hayotiy kuzatuvlari aynan obraz vositasida ifodalanadi. Obraz ishtirokchisiz asar harakatga kelmaydi. U epizodik qatnashchi bo'lishi ham mumkin, markaziy qahramon sifatida butun mazmun yukini ko'tarishi ham mumkin[2]. Biroq har qanday holatda ham obraz asarning ichki tuzilishini birlashtiruvchi tayanch vazifasini bajaradi.

Obraz tushunchasi tarixan murakkab taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Yunoncha "eydos" so'zi dastlab tashqi ko'rinish, qiyofa ma'nosini anglatgan[3]. Vaqt o'tishi bilan u faqat ko'rinish emas, balki mazmun, mohiyat va g'oya bilan bog'liq estetik kategoriya sifatida talqin qilina boshlagan. Shunday qilib, obraz ko'rinadigan shakl va ko'rinmas mazmun birligiga aylangan.

Antik estetik tafakkurda bu masala alohida o'rin tutadi. Platon san'atni real borliqning aks etishi deb bilgan bo'lsa, Aristotel taqlid tushunchasini ilgari surib, badiiy tasvirni hayotni umumlashtirish yo'li bilan qayta yaratish sifatida tushuntirgan[4]. Unga ko'ra, san'atkor voqelikni aynan ko'chirmaydi, balki undagi umumiylikni tanlab, estetik shaklga soladi. Shu jihatdan obraz voqelik bilan bog'liq bo'lsa-da, mustaqil badiiy mavjudlik kasb etadi.

Yevropa estetik tafakkurida obraz masalasi yanada chuqurlashadi. Kant estetik tajribada sezgi va tafakkur uyg'unligini muhim deb biladi. Uning qarashlarida obraz mazmun va hissiyot o'rtasidagi muvofiqlik mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Shelling esa obrazni real va ideal olam tutashgan nuqta deb talqin qiladi. Bu yondashuv obrazning ikki qirrali tabiatini ko'rsatadi: u ham hayotiy, ham g'oyaviy hodisadir.

Gegel obrazni estetik tafakkurning markaziy ko'rinishi sifatida baholaydi[5]. Uning fikricha, san'at tafakkuri obrazli tafakkurdir. Bu yerda mazmun va shakl bir-biridan ajralmaydi. G'oya aynan obraz shaklida namoyon bo'ladi. Demak, obraz san'atning tasodifiy unsuri emas, balki uning mavjudlik shaklidir.

Zamonaviy adabiyot nazariyasida badiiy obraz hayot hodisalarining individual shaklda qayta yaratilishi sifatida talqin qilinadi. Biroq bu qayta yaratish nusxa ko'chirish emas. San'atkor borliqni o'z estetik qarashi asosida tanlaydi, umumlashtiradi va badiiy shaklga soladi. Natijada real hayotdan kelib chiqqan, biroq mustaqil estetik qimmatga ega bo'lgan obraz yuzaga keladi[6]. Obraz til vositasida reallashadi. So'z badiiy shaklni hosil qiladi va ma'no qatlamlarini birlashtiradi. Obrazlilik adabiyotning ajralmas xususiyatidir. Fan tushunchalar orqali umumlashtirsa, san'at obraz orqali anglatadi. Ilm mantiqiy izchillikni talab qiladi, adabiyot esa tasviriy ifoda orqali ishonch uyg'otadi. Shu bois obrazli tafakkur san'atning asosiy belgisi sifatida qaraladi. Adabiyotda obrazlilik so'z orqali yuzaga chiqadi va til estetik kuchga ega vositaga aylanadi.

Badiiy obrazni yaratishda muallif voqelikni bevosita ko'chirmaydi. U hayotiy kuzatuvni ichki tajriba bilan boyitadi, individual belgilarni umumiy ma'no bilan uyg'unlashtiradi. Ijtimoiy tip badiiy xarakterga aylanishi uchun umumlashtirish va individuallashtirish bir vaqtning o'zida amalga oshadi. Shaxsning o'ziga xosligi saqlanadi, biroq u kengroq ma'no qatlamiga ega bo'ladi.

---

[1] Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. –Toshkent: Fan. 2007. – B.25.
[2] Меиегетти А. Словарь образов. – Ленинград: ЭКОС, 1991. – С.112.
[3] Салаев Ф ва бошқалар. Адабиётшунослик атамаларининг изоҳли сўзлиги. – Т.:Фан.2010. – Б.167.
[4] Аристотель. Поэтика (Поэзия санъати ҳақида). – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1980. – Б.151
[5] Гегель Г.В.Ф. Лекции по эстетике / Введение в литературоведение. Хрестоматия. Сост. Николаев П.А., Эсалнек А.Я. - М.: Высшая школа, 2006. – С. 8.
[6] Мамажонов З. Ўхшатиш асосидаги шеърий санъатларнинг назарий тавсифи ва таснифи: Филол. фан. б. фал. док. ... дисс. автореф. –Тошкент: 2017. -48

Adabiy janrlarda obrazning namoyon bo'lish shakli ham turlicha. Ba'zi hollarda xarakter taraqqiyot jarayonida ochiladi, ayrim janrlarda esa u shakllangan holda ko'rsatiladi. Hikoya va kichik hajmli asarlarda personaj ko'pincha tayyor xarakter sifatida namoyon bo'ladi, uning muayyan bir xususiyati ochib beriladi. Bu esa janr talabidan kelib chiqadi. Har qanday holatda ham obraz voqelikni badiiy shaklda mujassam etuvchi asosiy estetik birlik bo'lib qoladi.

She'riy asarlarda obraz masalasi o'ziga xos xususiyat kasb etadi. Lirik matnda obraz voqeani emas, holatni, jarayonni emas, kechinmani ifodalaydi. Shu bois u ko'pincha siqilgan, ramziy va ko'p ma'noli bo'ladi. She'riy obrazning asosiy belgisi – ma'noning konsentratsiyasi, ya'ni kichik hajmda katta estetik yuk tashishidir. M.H. Abrams "A Glossary of Literary Terms" asarida poetik obrazni sezgi orqali qabul qilinadigan tasvir sifatida izohlaydi va uni faqat ko'rish bilan bog'lamaydi. Uning ta'kidlashicha, she'riy obraz eshitish, sezish, hatto harakat hissini ham uyg'ota oladigan badiiy birlikdir. Demak, lirik obraz predmetning nusxasi emas, balki hissiy tajribani uyg'otuvchi estetik konstruksiyadir. She'riy obrazning yana bir muhim jihatini Rene Wellek va Austin Warren "Theory of Literature" asarida ko'rsatadi. Ular badiiy obrazni individual va umumiylik birligi sifatida talqin etadilar. Ya'ni obraz bir vaqtning o'zida aniq predmetni bildiradi va undan kengroq ma'noga ishora qiladi. Bu ikki qirrali tabiat she'riyatda ayniqsa yaqqol ko'rinadi.

Bolalar she'riyatida esa ushbu ikki xususiyat o'ziga xos shaklda uyg'unlashadi. Bir tomondan, bola konkret tasvirni talab qiladi. Obraz sezilarli va aniq bo'lishi lozim. Ikkinchi tomondan, bolalar she'riyati faqat predmetni ko'rsatish bilan cheklanmaydi. U hissiy va axloqiy qatlamni ham o'zida mujassam etadi. Shu bois bolalar she'riyatidagi badiiy obraz uch darajada shakllanadi:

- Konkret predmet yoki vaziyat;
- Hissiy tajriba;
- Yashirin ma'no yoki umumlashtirish.

O'zbek bolalar adabiyoti oxirgi 30–40 yilda nimalarga erishdi, degan savolga javob izlar ekanmiz, avvalo, o'tgan davr mobaynida bolalar adabiyotimiz o'z tabiiy o'zanlariga qayta boshlaganini quvonch bilan e'tirof yetmog'imiz shart. Masalan, hozir mamlakatimiz maktablarining yangi dasturlariga "Tarbiya" hamda "O'qish va yozish yozish savodxonligi" fanlari kiritildi. Yangi darslik va o'quv qo'llanmalarimizdan Anvar Obidjon, Abdurahmon Akbar, Dilshod Rajab, Kavsar Turdiyeva, Xudoyberdi Komilov, Quddus Muhammadiy, Qambar Ota singari bolalar shoirlarining she'rlari mustahkam o'rin egalladi. Binobarin, bolalar adabiyotimiz o'zining bevosita ma'rifiy vazifasini bajarishga kirishdi. Inchunin, farzandlarimiz insoniylik saboqlarini o'z milliy zaminimizda yaratilgan milliy adabiyotimiz namunalari orqali egallay boshladilar, xalqimizning ko'p ming yillik ma'naviy, adabiy, diniy qadriyatlarini qayta idrok eta boshladilar. Bularning barchasi yosh avlodning ma'naviy komil insonlar sifatida shakllanishi, o'z kindik qoni to'kilgan tuprog'i – Ona Vatani, o'z xalqi, o'z millatining sodiq farzandi bo'lib yetishuvlarida ulkan ma'rifiy ahamiyat kasb etishi shubhasizdir. Chunki o'zini hurmat qila oladigan, o'z tarixi, o'z madaniyati, o'z adabiyotini e'tirof yetadigan kishigina tom ma'nodagi vatanparvar bo'la oladi. Ikkinchidan esa, o'z qadriga yetgan odam o'zgalarni ham qadrlay oladi, o'z hurmatini bilgan odam o'zgalarning ham hurmatini joyiga qo'ya oladi. Bu o'rinda shuni ham qayd etish kerakki, istiqlol davri yangi bolalar adabiyotining maydonga kelishiga 80-yillarning ikkinchi yarmi adabiyoti katta ta'sir ko'rsatdi. Zero, ayni shu davrda bolalar adabiyotimiz tom ma'nodagi haqiqatga tik boqadigan adabiyotga aylandi, yosh avlodni erksevarlik tuyg'ulari ruhida tarbiyalashda ilk qadamlarini qo'ydi. Ana shu nuqtayi nazardan Istiqlol davri bolalar adabiyotimiz o'sishda, ulg'ayishda, o'zligini tanish yo'lidagi izlanishda deyishga tamomila haqlimiz[1]. Ammo bir narsani unutmaslik lozim, to'liq ishonch bilan muayyan asarni bolalar adabiyotiga nisbat berish har doim ham oson emas. Bolalar adabiyoti asarining mezonlari mavjud:

- yozuvchining bilimi bilan bolalar nashrida (jurnal, "bolalar uchun" deb nomlangan kitob, veb-sayt) nashr yetish;
- bolaga atalganligi;
- matnda yosh kitobxonlarga murojaatlar mavjudligi.

[1] Обиджон А., Ориф Т. Болаларга яхшилик қилишдан ортиқ саодат йўқ. // Ёшлик . – Тошкент, 2017. – №1. –Б. 13.

Bolalar adabiyotining rivojlanishiga pedagogik g'oyalar, shuningdek, tarixan o'zgarib turadigan bolalarning o'z ehtiyojlari ta'sir ko'rsatadi. Bolalar asarlari nafaqat pedagogika, balki bolaning psixologiyasi bilan ham bog'liq.

Bolalar badiiy asar mutolaasidan nimalarni kutadilar:

- "baxtli yakun";
- uyg'unlik;
- "haqiqat" (hatto fantastik asarlarda ham), shunda hamma narsa "hayotdagi kabi" bo'ladi;
- bolalik dunyosidan nusxa olish;
- hamfikr suhbatdosh.

Bolalar adabiyotini "umuman adabiyot»dan ajratishga imkon beruvchi asosiy mezon "bolalar kitobxoni toifasi"dir[1].

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, badiiy so'zga bo'lgan mehrni inson hayotining ilk davrlaridan – erta yoshdan boshlab shakllantirish shunchaki estetik ehtiyoj emas, balki tarbiyaning strategik jihatdan eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Bola bog'cha yoshidan to maktab davrigacha bo'lgan bosqichda adabiy nutqning jozibasi bilan tanishish asnosida, o'zbek adabiyotining boy xazinasi, uning qahramonlari va ma'naviy olamiga nisbatan chuqur hurmat ruhida voyaga yetadi.

Ushbu jarayonning ahamiyati quyidagi omillar bilan belgilanadi:

milliy o'zlikni anglash: Adabiyot orqali shakllangan estetik did keyinchalik shaxsda milliy madaniyat, san'at va qadriyatlarga bo'lgan sadoqatning mustahkam poydevorini yaratadi;

xalq og'zaki ijodining o'rni: Tadqiqotda ko'rib o'tilganidek, xalq og'zaki ijodi namunalari – ertaklar, maqollar, topishmoq va qo'shiqlar yosh avlodning ong-u shuuriga milliy kodlarni singdirishda eng samarali va ta'sirchan vosita bo'lib xizmat qiladi;

obrazli tafakkur va psixologizm: Bolalar adabiyotidagi badiiy obrazlar va ularning psixologik tahlili bola shaxsiyatida emotsional intellektni rivojlantiradi, ularda voqelikka nisbatan tanqidiy va estetik munosabatni shakllantiradi.

Shunday qilib, bolalar adabiyoti jamiyatning kelajakdagi ma'naviy qiyofasini belgilovchi asosiy omildir. Mazkur sohada yaratilayotgan asarlarda yosh kitobxonning psixologik xususiyatlarini hisobga olish, ularga adabiyot orqali nafaqat bilim berish, balki ularni ezgulikka yo'naltirish bugungi adabiyotshunoslik va pedagogika oldida turgan dolzarb vazifa bo'lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bualo N. She'riy san'at. Kitobda: G'arb adabiy-tanqidiy tafakkuri tarixi ocherklari / O'quv qo'llanma-xrestomatiya. – Toshkent: Fan, 2008. – B. 258.
2. Rasulov A. Betakror o'zlik. Toshkent: Mumtoz so'z, 2009. – B. 48.
3. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. –Toshkent: Fan. 2007. – B. 25.
4. Менегетти А. Словарь образов. – Ленинград: ЭКОС, 1991. – С. 112.
5. Salayev F va boshqalar. Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so'zligi. – T.:Fan. 2010. – B. 167.
6. Aristotel. Poetika (Poeziya san'ati haqida). – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1980. – B. 151.
7. Гегель Г.В.Ф. Лекции по эстетике / Введение в литературоведение. Хрестоматия. Сост. Николаев П.А., Эсалнек А.Я. – М.: Высшая школа, 2006. – С. 8.
8. Mamajonov Z. O'xshatish asosidagi she'riy san'atlarning nazariy tavsifi va tasnifi: Filol. fan. b. fal. dok. ... diss. avtoref. –Toshkent: 2017. – B. 48.
9. Obidjon A., Orif T. Bolalarga yaxshilik qilishdan ortiq saodat yo'q. // Yoshlik . – Toshkent, 2017. – №1. – B. 13.
10. Путилова Е.О. Русская поэзия детям // Русская поэзия детям: В 2 т. СПб.: Акад. проект, 1997. – С. 5.

[1] Путилова Е.О. Русская поэзия детям // Русская поэзия детям: В 2 т. СПб.: Акад. проект, 1997. – С. 5.

MUNDARIJA

I SHO'BA.
TARJIMASHUNOSLIKNING DOLZARB MASALALARI

1.	**Zuhriddin ISOMIDDINOV**. Bizdagi tarjima muammolari	5
2.	**Uzoq JO'RAQULOV**. O'zbek tarjimachiligi istiqbollari	9
3.	**Xurram RAHIMOV**. Alisher Navoiyning "Munojot" asari tarixi, tabdili va tarjimalari xususida	14
4.	**Олимджон КАСИМОВ, Мартаба СУЛТОНЗОДА.** Некоторые лингвистические особенности перевода лексем «Шахнаме» на русский язык	17
5.	**Ne'matilla OTAJONOV**. Eiji Mano – boburshunos olim	22
6.	**Rukhsana IFTIKHAR**. Beautification of Mughal women	26
7.	**Наталья ФИЛИМОНОВА**. Возможности перевода при работе иностранных учащихся с художественным текстом: начальный этап изучения русского языка	30
8.	**Kosimboy MAMUROV**. Nargiza TILAKOVA Functional syntax and mystical semantics: correlating syntaxemes with sufi concepts in Alisher Navai's Uzbek and English ghazals	34
9.	**Xayrulla HAMIDOV**. Muslimbek Yo'ldoshevning tarjimonlik mahorati	38
10.	**Ирода СИДДИКОВА**. К вопросу взаимосвязи психолингвистики и художественного перевода	43
11.	**Xayrulla HAMIDOV, Zulfizarxon QORAXO'JAYEVA**. Nafisiyning "Jannatning yarim yo'lida" asaridagi personaj portretining tarjimada berilishi	46
12.	**Абдумажид МАДРАИМОВ, Аскарий МАДРАИМОВ**. Вопросы перевода научного наследия Захириддина Мухаммада Бабура и традиция перевода в библиотеке Акбара в XVI веке	51
13.	**Supriya BANERJEE, Iroda UMAROVA** Reimagining classics: Tagore, translation and the global reader	54
14.	**Ziyodaxon TESHABOYEVA**. "Boburnoma"da milliy-madaniy xususiyatli til birliklar va ularning inglizcha tarjimalari	58
15.	**Zulkhumor MIRZAEVA**. Politics under the mask of poetics: Chulpon's translations in the 1920s-1930s	62
16.	**Abdumajid MAMADALIYEV**. Badiiy matn tarjimasida milliy koloritni ifodalash muammosi	72
17.	**Muhammadjon ABDUVALIYEV**. Sinxron tarjimashunoslikning zamonaviy masalalari	74
18.	**Мұратбек БАҒИЛА, Кәмшат АЙМАҒАМБЕТОВА**. Қазақ тілін оқыту әдістемесінің жаңа парадигмалары	80
19.	**Shermurod SUBHON**. Ijodiy kengashlarda	84

193.	**Гулсевар САИДОВА**. Языковые особенности творчества А. С. Пушкина и их использование в преподавании ТРКИ	846
194.	**Садокат ОЛИМЖОНОВА**. Изучение творчества А. С. Пушкина в преподавании русского языка как иностранного	853
195.	**Sokina IRISBAYEVA**. Moral and ethical values in Uzbek and English proverbs: a comparative study	860
196.	**Музаффар ХОДЖАХАНОВ.** Структурный и синтаксический анализ терминов статистики в английском и русском языках	864
197.	**Shaxnozabonu NEMATOVA.** The Interconnection Between Gender and Language: A Historical and Sociolinguistic Perspective	866
198.	**Мохира ЭШКУВАТОВА.** Роль грамматического комментария в преподавании русского как иностранного	870
199.	**Nazokat G'offorova.** Zulfiya she'rlari tarjimasida metaforalar tarjimasining o'ziga xos xususiyatlari	873
200.	**Адолат Бобо-Хожаева**. Тюркские заимствования в русском языке: пространство билингвизма и историческая перспектива	877
201.	**Жарылқасын Қалдықыз, Мадетханқызы Аружан**. Ayşa Bibi Türbesi: Mimari Ve Maneviyatin Kesişim Noktasi	880
202.	**Guljahon Xo'jayeva.** Qadimiy epik an'analar va tarixiy roman poetikasining uzviyligi	889
203.	**Dilovar Nurmuradova.** Abdurashid Nurmurodov ijodida psixologizm va inson taqdiri talqini	897
204.	**Shohida Mo'minova.** Badiiy obrazning estetik tabiati va bolalar adabiyotidagi talqini masalalari	905